

TASHQI SAVDO OPERATSIYALARIDA DEBITOR QARZDORLIKNI DAVLAT SOLIQ NAZORATI ORQALI TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI

Tashmuxamedov Dilmurod Mirabzalovich

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining "Xalqaro soliqqa tortish ma'muriyatchiligi boshqarmasi"ning davlat soliq bosh inspektori hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi e-mail: dilmurod3250@mail.ru

KIRISH

Tashqi savdo operatsiyalarida debitor qarzdorlikning yuzaga kelishi eksport qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun valyuta tushumlarining belgilangan muddatlarda qaytmasligi yoki import shartnomalari bo'yicha oldindan to'langan mablag'lar evaziga tovarlar, ishlar va xizmatlarning o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liqdir [1]. Bunday qarzdorliklar xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligiga, valyuta intizomiga, soliq tushumlariga hamda mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tashqi savdo operatsiyalarida debitor qarzdorlikni boshqarish faqat korxonalarining ichki moliyaviy nazorati doirasida emas, balki davlat soliq nazorati, valyuta operatsiyalari monitoringi, bojxona rasmiylashtiruv va bank hisob-kitoblari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi zarur [2].

O'zbekiston amaliyotida tashqi savdo operatsiyalarida debitor qarzdorlikni tartibga solishning huquqiy va tashkiliy asoslari bosqichma-bosqich shakllangan. "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonun, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonun, Soliq kodeksi hamda Vazirlar Mahkamasining tashqi savdo operatsiyalari monitoringiga oid qarorlari ushbu jarayonning asosiy me'yoriy-huquqiy bazasini tashkil etadi [3], [4], [5]. Ayniqsa, Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi orqali eksport-import kontraktlari, invoyslar, bojxona deklaratsiyalari, bank to'lovlari va soliq hisobotlari bo'yicha ma'lumotlarni o'zaro solishtirish imkoniyatining yaratilishi soliq nazorati monitoringining amaliy ahamiyatini oshirdi [6].

Mazkur tezisning maqsadi tashqi savdo operatsiyalarida debitor qarzdorlikni davlat soliq nazorati orqali tartibga solish mexanizmlarining mazmuni, ishtirokchilari va amaliy bosqichlarini yoritishdan iborat. Bunda soliq organlari, bojxona organlari, tijorat banklari, g'aznachilik bo'linmalari va iqtisodiy sudlarning o'zaro hamkorligi, TSOYAEAT ma'lumotlaridan foydalanish, muddati o'tgan qarzdorliklarni aniqlash va ularni kamaytirish bo'yicha qo'llaniladigan tashkiliy-huquqiy choralar tahlil qilinadi [6], [7].

Asosiy qism

Tashqi savdo operatsiyalarida debitor qarzdorlikni davlat tomonidan tartibga solish bir nechta o'zaro bog'liq mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Birinchidan, normativ-huquqiy



tartibga solish mexanizmi tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquq va majburiyatlarini, eksport-import shartnomalarini rasmiylashtirish tartibini, valyuta tushumlari qaytimini, soliq nazorati shakllarini hamda muddati o'tgan qarzdorliklarga nisbatan qo'llaniladigan choralarni belgilaydi [3], [4], [5]. Ikkinchidan, axborot-monitoring mexanizmi TSOYAEAT, bank to'lov hujjatlari, bojxona deklaratsiyalari va soliq hisobotlari ma'lumotlarini solishtirish orqali tashqi savdo shartnomalari ijrosini real vaqtga yaqin shaklda kuzatish imkonini beradi [6]. Uchinchidan, ta'sir choralarni qo'llash mexanizmi talabnoma yuborish, profilaktik tushuntirish, qarzdorlikni ixtiyoriy bartaraf etish, moliyaviy jarima qo'llash va zarur hollarda materiallarni iqtisodiy sudlarga yuborish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi [7].

Soliq organlari ushbu tizimda markaziy nazorat subyekti sifatida maydonga chiqadi. Ular tashqi savdo subyektlari tomonidan soliq, valyuta va tashqi iqtisodiy faoliyatga oid qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qiladi, eksport-import shartnomalari ijrosini tahlil qiladi, TSOYAEAT ma'lumotlari asosida muddati o'tgan debitor qarzdorliklarni aniqlaydi hamda qonunchilikda belgilangan choralarni qo'llaydi [2], [6]. Biroq mazkur jarayon faqat soliq organlari faoliyati bilan cheklanmaydi. Bojxona organlari tovarlarning olib kirilishi yoki olib chiqilishini rasmiylashtiradi, tijorat banklari valyuta tushumlari va xalqaro to'lovlar hisobini yuritadi, g'aznachilik bo'linmalari byudjet tashkilotlari to'lovlarini nazorat qiladi, iqtisodiy sudlar esa moliyaviy javobgarlik va jarima qo'llash bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqadi [6].

Debitor qarzdorlikni boshqarish samaradorligi idoralararo axborot almashinuvi sifatiga bevosita bog'liq. Eksport-import operatsiyasidagi qarzdorlik holati odatda bir vaqtning o'zida bir nechta manbalarda — kontrakt yoki invoys ma'lumotlarida, bojxona deklaratsiyalarida, bank to'lov hujjatlarida, valyuta tushumlari hisobida va soliq hisobotlarida aks etadi. Ushbu ma'lumotlar o'zaro solishtirilganda tovar yetkazib berilgan-yetkazib berilmagani, to'lov amalga oshirilgan-oshirilmagani, valyuta tushumi belgilangan muddatda qaytgan-qaytmagani hamda shartnoma majburiyatlari to'liq bajarilgan-bajarilmagani aniqlanadi. Shu bois elektron monitoring tizimlari debitor qarzdorlikni kamaytirishda profilaktik va tahliliy vosita sifatida muhim ahamiyatga ega [6], [7].

Tashqi savdo operatsiyalarida debitor qarzdorlikni boshqarish mexanizmi amaliy jihatdan bir necha izchil bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan tashqi savdo kontrakti yoki invoys bo'yicha ma'lumotlar Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga kiritiladi. Keyingi bosqichda ushbu ma'lumotlar tijorat banklarining to'lov hujjatlari, bojxona deklaratsiyalari va soliq hisobotlari bilan o'zaro solishtiriladi. Belgilangan muddatlarda tovarlar, ishlar, xizmatlar yoki valyuta tushumlari kelib tushmagan holatlarda muddati o'tgan debitor qarzdorlik aniqlanadi. Shundan so'ng soliq organlari tomonidan talabnoma yuborish, profilaktik tushuntirish,



qarzdorlikni ixtiyoriy bartaraf etish, moliyaviy jarima qo'llash yoki materiallarni iqtisodiy sudlarga yuborish kabi choralar amalga oshiriladi [6], [7].

Tashqi savdo operatsiyalarida debitor qarzdorlikni soliq nazorati orqali boshqarish bosqichlari



1-rasm. Tashqi savdo operatsiyalarida debitor qarzdorlikni soliq nazorati orqali boshqarish bosqichlari.


1-rasmdan ko'rinadiki, tashqi savdo operatsiyalarida debitor qarzdorlikni boshqarish mexanizmi faqat qarzdorlik yuzaga kelganidan keyin jarima qo'llash bilan cheklanmaydi. Aksincha, mazkur jarayon kontrakt ma'lumotlarini elektron ro'yxatga olish, bank va bojxona axborotlarini soliq ma'lumotlari bilan solishtirish, riskli holatlarni erta aniqlash, profilaktik chora ko'rish hamda zarur hollarda huquqiy ta'sir choralarini qo'llashni qamrab oladi. Shu jihatdan TSOYAEAT soliq nazoratini hujjatli tekshiruvdan elektron monitoring va tahliliy nazorat shakliga o'tkazuvchi muhim axborot infratuzilmasi sifatida namoyon bo'ladi [6].

Soliq nazorati monitoringi natijalarini dinamik tahlil qilish tashqi savdo operatsiyalarida muddati o'tgan debitor qarzdorlik muammosi yildan-yilga keskinlashib borayotganini ko'rsatadi. Xususan, 2010-yilda muddati o'tgan debitor qarzdorlik 67,4 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 6 392,3 mln AQSH dollariga yetgan. Shu davrda monitoring o'tkazilgan subyektlar soni 821 tadan 12 235 taga, aniqlangan huquqbuzarliklar soni esa 932 tadan 15 296 taga oshgan. Bu holat, bir tomondan, tashqi savdo operatsiyalari hajmining kengaygani, ikkinchi tomondan esa elektron monitoring va soliq nazorati qamrovi kuchayganini bildiradi [6], [7].



Muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tashqi savdo aylanmasiga nisbati

2010–2024-yillarda tashqi savdo aylanmasiga nisbatan qarzdorlik ulushi, foizda.



2-rasm. Muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tashqi savdo aylanmasiga nisbati, foizda

2-rasm ma'lumotlari muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tashqi savdo aylanmasiga nisbatan ulushi 2010-yildagi 0,30 foizdan 2024-yilda 9,51 foizgacha oshganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2021-yildan keyingi davrda ushbu ko'rsatkichning tez sur'atlarda o'sishi tashqi savdo operatsiyalarida qarzdorlik xavfi tizimli tus olayotganidan dalolat beradi. Bu esa soliq nazorati monitoringini faqat aniqlangan huquqbuzarliklarni qayd etish vositasi sifatida emas, balki tashqi savdo intizomi, valyuta tushumlari qaytimi va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi sifatida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi [6].

Mazkur jarayonni davrlar kesimida baholash tashqi savdo operatsiyalarida debitor qarzdorlikni boshqarish tizimi bosqichma-bosqich takomillashganini ko'rsatadi. 2010–2015-yillar hujjatli nazorat va kameral tahlil ustuvor bo'lgan davr sifatida tavsiflanadi. 2016–2020-yillarda elektron monitoring elementlari kuchayib, soliq, bojxona va bank ma'lumotlarini o'zaro solishtirish amaliyoti kengaydi. 2021–2024-yillarda esa TSOYAEAT ma'lumotlari asosida qarzdorliklarni aniqlash, ularni tizimli monitoring qilish va huquqiy ta'sir choralarini qo'llash amaliyoti yanada faollashdi. Jumladan, 2021–2024-yillarda aniqlangan muddati o'tgan debitor qarzdorliklarning jami hajmi 16 339,9 mln AQSH dollarini, monitoring o'tkazilgan subyektlar soni 32 933 tani, aniqlangan huquqbuzarliklar soni esa 45 482 tani tashkil etgan [6].

Tashqi savdo operatsiyalarida debitor qarzdorlikning eksport va import ko'rsatkichlariga nisbatan tahlili ham muhim amaliy xulosalarni beradi. 2024-yilda muddati o'tgan debitor qarzdorlik eksport hajmining 23,80 foiziga, import hajmining esa 15,83 foiziga



teng bo'lgan. Bu ko'rsatkichlar eksport bo'yicha valyuta tushumlarining o'z vaqtida qaytmasligi hamda import shartnomalari bo'yicha oldindan to'langan mablag'lar evaziga tovar yoki xizmatlarning belgilangan muddatlarda olib kirilmasligi holatlari soliq nazorati uchun ustuvor yo'nalish bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Shu sababli debitor qarzdorliklarni kamaytirishda eksport va import operatsiyalarini alohida risk profillari asosida monitoring qilish maqsadga muvofiqdir [6].

Xulosa

Tashqi savdo operatsiyalarida debitor qarzdorlikni davlat soliq nazorati orqali tartibga solish mamlakatda valyuta intizomini mustahkamlash, eksport-import shartnomalari ijrosini nazorat qilish, soliq tushumlari barqarorligini ta'minlash hamda iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashqi savdo operatsiyalarida yuzaga keladigan muddati o'tgan debitor qarzdorliklar faqat xo'jalik yurituvchi subyektlarning ichki moliyaviy muammosi emas, balki soliq, valyuta, bojxona va bank nazorati bilan bevosita bog'liq bo'lgan kompleks boshqaruv obyekti hisoblanadi.

2010–2024-yillar bo'yicha monitoring natijalari tashqi savdo operatsiyalarida muddati o'tgan debitor qarzdorlik hajmi va uning tashqi savdo aylanmasiga nisbatan ulushi keskin oshganini ko'rsatadi. Jumladan, muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tashqi savdo aylanmasiga nisbati 2010-yildagi 0,30 foizdan 2024-yilda 9,51 foizgacha oshgan. Bu esa tashqi savdo shartnomalari bo'yicha to'lov intizomi, valyuta tushumlari qaytimi, import bo'yicha oldindan to'langan mablag'lar hisobiga tovar va xizmatlarning o'z vaqtida yetkazib berilishi ustidan monitoringni yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi [6].

Tashqi savdo operatsiyalarida debitor qarzdorlikni kamaytirish uchun soliq nazorati monitoringini riskka asoslangan yondashuv asosida takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bunda TSOYAEAT, bank to'lov hujjatlari, bojxona deklaratsiyalari va soliq hisobotlari ma'lumotlarini real vaqtga yaqin rejimda o'zaro integratsiya qilish, eksport va import operatsiyalari bo'yicha alohida risk profillarini shakllantirish, muddati o'tgan qarzdorliklarni erta ogohlantirish indikatorlari orqali aniqlash hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan profilaktik ishlash mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Shuningdek, asossiz yoki umidsiz qarzdorliklarni elektron tizimda sun'iy ravishda saqlanib qolishining oldini olish, qarzdorliklarni real iqtisodiy holatidan kelib chiqib baholash va sudgacha hal etish amaliyotini kengaytirish soliq nazorati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tashqi savdo operatsiyalarida debitor qarzdorlikni davlat soliq nazorati orqali tartibga solish mexanizmi huquqiy tartibga solish, elektron monitoring, idoralararo axborot almashinuvi, profilaktik choralar va majburiy ta'sir vositalarining uyg'unligiga asoslanishi kerak. Ushbu mexanizmning takomillashtirilishi tashqi savdo



intizomini mustahkamlash, valyuta tushumlari qaytimini ta'minlash, soliq bazasini himoya qilish va mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997-yil 29-avgust, 474-I-son.

2. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. 2000-yil 26-may, 77-II-son.

3. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 22-oktabr, O'RQ-573-son.

4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2019-yil 30-dekabr, O'RQ-599-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha to'lov intizomini mustahkamlash va debitor hamda kreditor qarzdorliklarni kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2019-yil 6-iyun, 464-son.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yuritish tizimini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2020-yil 14-may, 283-son.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimidan umidsiz qarzdorliklarni hisobdan chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. 2021-yil 14-aprel, 216-son.

8. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining "Davlat soliq xizmati organlari tomonidan valyuta va eksport-import operatsiyalarini tartibga soluvchi qonunchilikka rioya etilishi ustidan monitoring, tahlil va nazorat ishlarini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi 127-son buyrug'i. 2012-yil 23-mart.

9. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — Lex.uz rasmiy elektron manbalari.


10. Tashqi savdo operatsiyalarida debitor qarzdorlikni soliq nazorati monitoringi bo'yicha 2010–2024-yillar statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblar.

11. Tashmuxeamedova, Y. (2023). Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatchiligi faoliyati tahlili. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(7).

12. Yayra, T. (2023). Analysis of Tax Administration Activity of State Tax Service Bodies. Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN, 2249(0892).

13. ТАШМУХАМЕДОВ, Д., & ТАШМУХАМЕДОВА, Я. ПУТИ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ ЗА ВНЕШНЕТОРГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ. ПОЛИТЕХ-ПРЕСС КОНФЕРЕНЦИЯ: ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ ИНЖЕНЕРНАЯ ЭКОНОМИКА И





ИНДУСТРИЯ 6.0 (ИНПРОМ-2025) Санкт-Петербург, 27–30 апреля 2025 года
Организаторы: Санкт-Петербургский политехнический университет Петра
Великого. https://labec.spbstu.ru/userfiles/files/inprom-21/sbornik_inprom_2025_2.pdf

14. Tashmuhamedova, Y. A. (2019). WAYS TO IMPROVE THE ACTIVITIES OF THE SYSTEM OF TAX MANAGEMENT AND ORGANIZATION OF THE WORK OF EMPLOYEES OF THE PUBLIC TAX SERVICE. *Theoretical & Applied Science*, (3), 538-544.

